

ADABIY TAHLIL YORDAMIDA O'QUVCHILARINING SO'Z BOYLI GI VA
NUTQIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISH

G.Sh.Hamidova

Farg'ona davlat universiteti 2-kurs talabasi

(Farg'ona, O'zbekiston)

Annotatsiya: Ushbu maqolada adabiy tahlil yordamida o'quvchilarning so'z boyligi va nutqini o'stirish va rivojlantirishda pedagogik texnologiyalarning o'rni va dars jarayonida qo'llash usullari yoritilgan.

Kalit so'zlar: Adabiy asar, metodika, asar tahlili, nutqiy qobiliyat, so'z boyligi, saviya, dunyoqarash.

Kirish: Adabiy asar tahlili metodikasi adabiy asar tilini o'rganish jarayonida tilshunoslik faniga murojaat qiladi, o'zbek adabiy tilining estetik xususiyatlarini tahlil orqali yoritishni nazarda tutadi, ruhshunoslik fani bilan bog'lanib, adabiy asar tahlilida qo'llangan usul va vositalar boshlang'ich sinf o'quvchilari yoshiga, bilim saviyasiga, ongiga, dunyoqarashiga nechog'lik mos kelishini e'tiborga oladi.

Asosiy qisim: Pedagogika va didaktika bilan chambarchas bog'liqlikda adabiy asar tahlili metodikasi oxir-oqibat yosh avlodning barkamol, oqil insonlar sifatida shakllanishga ta'sir ko'rsatadi, ezgulikni, go'zallikni his qiluvchi, qadrllovchi, ma'naviyati barkamol shaxslarni voyaga yetkazishga xizmat qiladi.

Adabiy asar tahlili metodikasi boshlang'ich sinf o'quvchilarida adabiy asarlarni o'rganish, estetik tahlil qilish malakasini tarkib toptirish va takomillashtirishlarida yordam beradi, shukur adabiy asarlarni tahlil qilish vositasida o'quvchi yoshlar ma'naviyatini yuksaltirish, ularning estetik didlarini, nutqini, nutq madaniyati va nutq boyligini, fikrlash salohiyatini o'stirishni ko'zda tutadi.

Adabiy matnga tayanib tahlil yuritishda quyidagi tavsiyalarga amal qilish foydali:

1. Badiiy nutqning sochma, tizma ko'rinishda bo'lishi, ularning farqlari; she'riy nutqning ohangli, vaznli va bandli nutq ekanligini o'quvchilarga tushuntirib berish. Nasriy yoki drammatik asarlar ham o'ziga xos nutq qurilishiga ega ekanligini badiiy til xususiyatlarining tahlili orqali yoritishga erishish.

2. Tahlil davomida yozuvchi uslubi va mahoratini namoyon etuvchi tasviriy manzaralar, ruhiy holatlar, dialoglar yoki epizodlardan, buyumlar tasviriga xos yorqin misollardan o'rinli foydalanish. Adabiy asar matn to'laligicha muayyan ijodkor kashf etgan g'oyaviy-badiiy konsepsiyani yoritishga xizmat qilishini asoslash.

3. Adabiy matn kitobxonga san'atkorning ijodiy tafakkur tarzi, dunyoqarashi, shaxsiy sifatlariga oid muayyan xulosalar chiqarish imkonini berishini dalillar orqali

yoritishga erishish.

Demak, adabiy tahlil darslarini tashkil etishda xilma-xil metod va usullardan foydalanish mumkin. Darsning samaradorlik darajasini esa o'qituvchining bilimi, ijodkorlik qobiliyati, darsni ilmiy-metodik jihatdan to'g'ri tashkil etishdagi mahorati belgilaydi. Adabiy tahlil vositasida o'quvchining badiiyat olamiga mehrini, badiiy ijod namunalariidan hayratlanish hissini uyg'ota olgan o'qituvchi faoliyati samarali yakunlanadi. Samarali darslardan albatta o'quvchi nutq kompetensiyasi uchun muhim natijaga erishiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari asta-sekin kichik hajmli ertak, hikoya, bolalar uchun yozilgan she'rlarni o'qish jarayonida ularning mazmunini o'zlashtirib, og'zaki nutqda qayta bayon qilishga, odob va axloq masalalariga munosabat bildirishga o'rganadilar. O'quvchilar obrazlarning xatti-harakatlarini kuzatib, ularga tavsif berish malakasini hosil qiladilar.

Ayni shu ko'nikmalarga tayanib, ta'limning keyingi bosqichlarida o'quvchilarda adabiy tahlil malakasi shakllantirila boshlanadi. Tabiiyki, 5-7-sinflar o'quvchilari oldiga qo'yiladigan o'quv maqsadlari va vazifalari asta-sekin murakkablasha boradi.

O'qituvchi-o'quvchi munosabatlarida o'quvchining faolligini oshirishga alohida e'tibor qaratiladi, xilma-xil janrdagi asarlarni o'qib o'rganish jarayonida zarur nazariy bilimlarni o'zlashtirib borishlari, badiiy asarning shakl va mazmun jihatdan yaxlitligi haqida tasavvur hosil qilishlari, o'qib o'rganilgan asarlarni o'qituvchi yordamida tahlil qilishga kirishishlari ko'zda tutilgan.

Shu sababli, 5-7-sinflardagi adabiy tahlil xususiyatlarini quyidagicha belgilash mumkin:

- badiiy asar janriga oid nazariy tushunchalarni syujet, kompozitsiya, obraz, badiiy konfliktga bog'lab o'rganish, darsda o'rganilgan asarlarning badiiy hususiyatlariga o'quvchilar diqqatini qaratish, xilma-xil janrdagi asarlarni janr talablari asosida o'zaro farqlash *malakasiga ega bo'lish;*

- darslikdagi savol va topshiriqlar, o'qituvchining o'quvchilarni mustaqil ijodiy ishga hamda tahlilga yo'llovchi topshiriqlari asosida tahlil malakasini shakllantirib borish;

- o'quvchilarni adabiy asar matniga tayanib tahlil qilishga yo'naltiruvchi usullardan foydalanish.

Binobarin, o'quvchilarda adabiy tahlil malakasini shakllantirish didaktik, psixologik va metodik tamoyillarga tayanishni taqozo etadi. Chunki, o'quvchining badiiyatni his qilish holati uning ruhiyati bilan bog'lansa, badiiy asarni o'qib o'rganish jarayonida undan hayotiy xulosalar chiqarish, ma'naviy saboq olishga, ong va hissiyotining ta'lim maqsadiga ko'ra rivojlanishi didaktika bilan bog'lanadi, o'quvchining adabiy tahlil talablarini o'rganishi, adabiy asarning qurilishi va janriga

oid bilimlarni o'zlashtirib, badiiy ijod qonuniyatlari talablariga mos tarzda bu bilimlarga tayanib amaliy ish yuritishi, ijodiy fikrlashi-metodika bilan bog'lanadi. Maktab adabiy ta'limiga estetik tahlilni olib kirish masalasi hanuz dolzarbligini saqlab turibdi.

Xo'sh, adabiy tahlil nima? Umumta'lim maktablari adabiy ta'limiga estetik tahlilni olib kirish yo'llari qanday? O'quvchilarda adabiy tahlil malakasi ta'limning qaysi bosqichida shakllantiriladi? Adabiy tahlil - badiiy asarni o'qib, mazmunini o'zlashtirishdangina iborat emas, holbuki, ko'plab adabiyot o'qituvchilari adabiy tahlilni ana shunday yuzaki tarzda tushunadilar.

Xulosa: Adabiy tahlil she'r yoki nasriy asarni ifodali o'qishdan boshlanadi, o'qish davomida ijodkor yaratgan tafakkur tarzi anglanadi, o'zlashtiriladi, muhokama qilinadi, kitobxon ko'z o'ngida yaratilgan poetik manzara yoki holat ham tashqi, ham ichki harakatlar, tuyg'ular orqali idrok etiladi, his qilinadi. O'sha ta'sirchan manzarani yaratishda shoir yo yozuvchi qo'llagan tasviriy vositalarga sirtidan ahamiyat berilmaydi, asosiy e'tibor o'qish jarayonida mazmunga, obrazning ichki ma'nolariga jalb etiladi. Ammo, tahlil jarayonida ana shu ma'nolarni ifoda etishga safarbar qilingan barcha vositalar o'rganiladi. Xilma-xil davrda yashab ijod etgan ijodkorlar yaratgan asarlarni badiiylik, hayotiylik va ta'sirchanlik mezonlari asosida o'rganish maktab adabiy ta'limining bosh vazifasini belgilaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M."Adabiyot va san'at ma'naviy olamini mustahkamlash poydevoridir". O'zbekiston ijodkor ziyolilari bilan uchrashuvdagi ma'ruza. 2017. 3-avgust.
2. Mirziyoyev Sh.M. "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqiyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari". 2018. 7-avgust.
3. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti. Toshkent, O'qituvchi 2011.
4. Safarov O., Barakayev R., Jamilova B. Bolalar adabiyoti. - Buxoro.: Durdon, 2019.- 420 b
5. Masharipova Z. O'zbek xalq og'zaki ijodi. T., 2008

Telegram saytlari va axborot manbalari.

1. www.pedagog.uz
2. www.Ziyonet.uz